



## MATURIDI AND SAMARKANDI'S DOCTRINAL VIEWS: DIFFERENCES AND CORRESPONDENCES

*Muhammadjon Abduhamidov*

*Doctor of Philosophy in Islamic Studies, Associate Professor  
Fergana State University  
Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Maturidi, Hakim Samarkandi, creed, divine attributes, faith, exception, sin, confirmation, Mu'tazila, Mushabbiha, Qadariyya, Ahl al-Sunnah wa-l-Jama'ah.

**Received:** 04.03.25

**Accepted:** 06.03.25

**Published:** 08.03.25

**Abstract:** This article examines the doctrinal views of Abu Mansur al-Maturidi and Hakim Samarkandi. It analyzes the similarities and differences in the scholarly legacies of Maturidi and Samarkandi, especially regarding important social-philosophical issues such as faith, divine attributes, the relationship between God and human actions, and matters of exception in faith. The article compares the views of both thinkers and highlights the similarities and differences in their doctrinal perspectives. Their views, based on the Ahl al-Sunnah wa-l-Jama'ah tradition of Islam, show how they developed firm theories against the Mu'tazila, Mushabbiha, and Qadariyya.

## MOTURIDIY VA SAMARQANDIY AQIDAVIY QARASHLARIDAGI TAFOVUT VA MUTANOSIBLIK

*Muhammadjon Abduhamidov*

*Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Farg'ona davlat universiteti  
Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Moturidiy, Hakim Samarqandiy, aqida, ilohiy sifatlar, imon, istisno, gunoh, tasdiqlash, mutaziliylik, mushabbihalar, qadariylar, ahl as-sunna va-l-jamo'a.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola, Abu Mansur Moturidiy va Hakim Samarqandiyning aqidaviy qarashlarini o'rganadi. Moturidiy va Samarqandiy ilmiy meroslaridagi o'xshashlik va tafovutlar, ayniqsa, imon, ilohiy sifatlar, Alloh va inson harakatlari o'rtasidagi bog'liqlik, imonda istisno masalalari kabi muhim ijtimoiy-falsafiy

masalalar bo'yicha tahlil qilinadi. Maqola, ikkala mutafakkirning fikrlarini taqqoslaydi va ularning aqidaviy qarashlaridagi o'xshashlik va farqlarni ochib beradi. Ularning aqidaviy qarashlari, Islomning ahl as-sunna va-l-jamoa yo'nalishiga asoslanib, mu'taziliylar, mushabbihalar va qadariylarga qarshi o'zining qat'iy nazariyalarni shakllantirganini ko'rsatadi.

## МАТУРИДИ И САМОКАНДИЙ: РАЗЛИЧИЯ И СООТНОШЕНИЯ В ИХ ДОКТРИНАЛЬНЫХ ВЗГЛЯДАХ

*Мухаммаджон Абдухамидов*

*Доктор философии по исламским наукам, Доцент*

*Ферганского государственного университета*

*Фергана, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Матуриди, Хаким Самаркандий, акида, божественные атрибуты, вера, исключение, грех, подтверждение, мутазилиты, мушаббиха, кадариты, ахл ас-Сунна ва-л-Жама'а.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются доктринальные взгляды Абул-Мансура аль-Матуриди и Хакима Самаркандийского. Анализируются сходства и различия в научном наследии Матуриди и Самаркандий, особенно в вопросах веры, божественных атрибутов, взаимоотношений между Богом и человеческими поступками, а также вопросы исключений в вере. В статье проводится сравнение взглядов этих двух мыслителей и выявляются сходства и различия в их доктринальных позициях. Их взгляды, основанные на традиции Ahl as-Sunnah wa-l-Jama'ah в исламе, демонстрируют, как они сформировали строгие теории против мутазилитов, мушаббиха и кадаритов.

### **Kirish**

IX asr ikkinchi yarmida Samarqand kalom maktabi tarixida yangi maktab paydo bo'ldi: Abu Sulaymon Juzjoniy shogirdi Abu Bakr Juzjoniy va uning hanafiy o'quvchilari nomi bilan bog'liq. Mazkur ikki maktabning kalom sohasidagi asarlari bizgacha yetib kelmagani bois, mazkur fan rivojiga qo'shgan hissalarini haqida biror fikr bildirish qiyin. Lekin mazkur maktab vakillari – Abu Mansur Moturidiy va Hakim Samarqandiy ijodlari bilvosita ustozlarining bilim doiralari ancha keng va salmoqli bo'lganidan darak beradi.

Mustafiz Rahmonning keltirishicha Moturidiy maktabi VIII/XIV asrgacha Moturidiya nomi bilan ma'lum bo'lmagan. 741/1340 yilda vafot etgan Ibn Fazlulloh Umriy "Masolik al-absor fi Mamolik al-amsor" asarida keltirganidan so'ng mashhur bo'lgan. Kitobda "Imom Abu Mansur

Moturidiy butun jamoaning yetakchisi, uning shaxsiyati, ahl-as-sunna va-l-jamoa da'volarini ishonchli hamda qat'iy dalillar bilan himoya qilishi, qo'llab-quvvatlash yo'lidagi beqiyos kuchi, mu'taziliylarni Imom Abu Hanifa hamda uning shogirdlarining aqida va usul masalalaridagi qarashlaridan g'azablanishiga sabab bo'lgan", – degan.

Sharq biograf olimlar birinchi navbatda X-XI asrlarda Samarqandda yashab o'tgan barcha ulamolarga e'tibor qaratishgan. O'sha davrda mazkur shaharda yashagan allomalardan ilohiyot mavzusiga ozmi-ko'pmi qiziqish ko'rsatgan bo'lsa, Moturidiy shogirdlari qatoridan joy olgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bu borada Sh.Ziyodov maqolasida: "Ko'p hollarda mashhur allomalarni Moturidiy bilan bog'lash ham uchraydi, lekin izchil o'rganilganda bunga hech qanday tarixiy asos yo'qligini ko'rish mumkin. Misol tariqasida "Kitob as-savod al-a'zam" asari muallifi Hakim Samarqandiyning bir muncha keyin yozilgan manbalarda uni Imom Moturidiyning shogirdi qatoriga qo'yiladi. Ammo ilk davr manbalarida Hakim Samarqandiy Imom Moturidiyning shogirdi ekani tasdiqlanmaydi", – degan fikrni beradi. Lekin shu maqolani o'zida Hakim Samarqandiyning Moturidiyning izdosh-shogirdlari qatorida sanab o'tiladi [1].

Umuman olganda, har ikki olim ham turli oqim va yo'nalishlarga ajrab ketgan islom jamoasini birlashtirishga harakat qilishgan. Ikkalasi ham, ularning asarlaridan namoyon bo'lganidek imon, Allohning sifatlari, insonning xatti harakatlari kabi fundamental mavzularda bir xil fikrda bo'lishgan. Shu holatda ular Moturidiylikning dastlabki asos qoidalarini shakllantirishgan. Ularning asarlarini qiyosiy jihatdan o'rganib chiqish ushbu masalaga oydinlik kiritishda xizmat qilishi mumkin. Ushbu taqqoslash quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

Imon, ilohiy sifatlari, husni xulq, hukmronlik masalalari, Alloh va inson harakatlari o'rtasidagi bog'liqlik, imonda istisno masalasi.

Moturidiy fikriga ko'ra, istisno, bir so'z bilan aytganda "Agar Alloh istasa, men imon keltirganman", deyish joiz emas, chunki, bu musulmonlarning bir qismini ikkilantirib qo'ygan, va Alloh bu haqda ogohlantirgan "Haqiqiy imon keltirganlar Alloh va uning rasuliga ishonuvchilardir, keyinchalik bu haqda ikkilanganlar emas". Imon vaqtinchalik narsa emas, u o'zgarmas; shuning uchun ham bu borada istisno qilishga yo'l qo'yilmaydi. Istisno guvohlikni va va'dalarni bekor qilishi mumkin; u imon bilan ham shunday qilishi mumkin. Istisno odatda bir kishining duolari amalga oshmagan vaqtda sodir bo'lishi mumkin, biroq bu bu holat qabul qilinmaydi. Chunki kimdur Allohga chin ko'ngildan ishonmasa, u Allohga imon keltirmagan holda undan biror nima so'ray olmaydi. Moturidiy boshqa bir dalilni ilgari suradi, ya'ni agar kimdir istisnoni talaffuz qilish orqali, u umuman olganda imonga nisbatan shubhasi borligini ifodalamaydi, chunki Alloh Qur'onda istisnoni aytib u bilan bog'liq bo'lgan hech qanday shubhali narsani aytmagan. Bunga "Fath" surasi 27-oyati dalil bo'ladi:

لَتَدْخُلَنَّ الْمَسْجِدَ الْحَرَامَ إِنْ شَاءَ اللَّهُ آمِنِينَ مُخَلِّقِينَ رُءُوسِكُمْ وَمُقَصِّرِينَ لَا تَخَافُونَ

“Masjidul-haromga emin-erkin, boshlaringizni (sochlaringizni) qirdirgan va (yoki) qisqartirgan hollaringizda qo‘rqmasdan kirursiz, inshaalloh” [2 514]. Muhammad (s.a.v) boshchiligidagi musulmonlar muqaddas masjidga kirishi Alloh tomonidan nozil qilingan istisno orqali ma‘lum bo‘lgan. Moturidiy ushbu taklifga quyidagicha javob qaytargan: ushbu dalil mashhur emas chunki Alloh aniqlik bilan biror aniq dalil haqida aytganda “balki”, “bo‘lishi mumkin”, “bo‘lgan bo‘lar edi” degan so‘zlarni ishlatgan. Bundan tashqari, Alloh Muhammad (s.a.v.)ga va‘da berayotgan vaqtda istino aytishni o‘rgatgan bo‘lishi mumkin. Alloh: “Hech narsani “hudo hohlasi”ni qo‘shmasdan turib men ertaga bajaraman deb aytma”, Men bajaraman, men kiraman ham xuddi shunday ma‘noni anglatadi.

Boshqa tomondan Hakim Samarqandiy o‘z ustozining misoliga ergashgan. U aytadiki, hech kim boshqa birovning imoniga shubha bilan qaramasligi kerak, chunki, “Hujurot” surasi 15-oyatida:

إِنَّمَا الْمُؤْمِنُونَ الَّذِينَ آمَنُوا بِاللَّهِ وَرَسُولِهِ ثُمَّ لَمْ يَرْتَابُوا

“Haqiqiy mo‘minlar Alloh va uning payg‘ambariga imon keltirib, so‘ngra shubha qilmagan...” [2. 517], deyiladi. Ba‘zi huquqiy tamoyillarda (ahkomlar) agar kishi o‘zining xotiniga, “Agar Alloh istasa sen ajrashasan”, yoki o‘zining quliga “Agar Alloh istasa, sen ozodsan” deb aytsa, hech qanday bog‘lanish sodir bo‘lmaydi, chunki bu barcha qoidalarni asossiz qilib qo‘yadi, va imonni zaiflashtirish bilan barobar.

Imon – dil bilan tasdiqlash va til bilan isbot qilishdir.

Moturidiy dil bilan tasdiqlashga til bilan aytishdan ko‘ra ko‘proq urg‘u bergan. Olim “Kitob at-Tavhid” va “Kitob at-Ta‘vilot” asarlarida dil bilan tasdiqlashga ko‘proq e‘tibor qaratgan. Mantiqiy nuqtai nazardan, Moturidiy dinlarga e‘tiqod qilish masalasida tortishadi. Kishi boshqa bir kishining qalbiga ishonadi, tiliga emas, boshqa bir kishini esa tili bo‘lmasa ham u Alloh va payg‘ambarlarga ishonadi.

Kim imonni tili bilan tasdiqlasa, Moturidiylikka ko‘ra, unga musulmonga qilinadigan munosabatda bo‘linadi. Hakim Samarqandiy ham Moturidiyning fikriga qo‘shiladi, biroq u imonni til bilan tasdiqlashga Moturidiydan ko‘ra ko‘proq e‘tibor qaratadi.

U til qalbsiz hech qanday qiymatga ega emasligini aytadi. Imonni qalbdagi Alloh haqidagi bilim deb ataydi. Bu monoteizm (tavhid)dir. Shunga qaramasdan, Samarqandiy fikriga ko‘ra, kimki Allohni qalbida tasdiqlab ammo tilida aytmasa u kofir hisoblanadi.

Gunoh qiluvchi mo‘minni Moturidiy va Samarqandiy gunohkor, hatto u og‘ir gunohlar qilsa ham mo‘min deb hisoblanadi degan fikrda ittifoq qilishgan. U majoziy mo‘min yoki Mutaziliylar aytganidek imon va e‘tiqodsizlik orasidagi bosqichda emas. Moturidiyning aytishicha, ushbu jamoa kishilari gunohkorlarni ajratib qo‘yishgan; ular gunohkorlarga kofir, politeist na musulmon na kofir, ikkiyuzlamachi, fosiq degan tamg‘a qo‘yishgan. Moturidiy fikricha, ushbu jamoa ichidan

bo'lgan kishilar og'ir gunoh sodir etgandan so'ng tavba qilishsa kechirishgan. U gunohkor kishilarni kofir deb atashdan bosh tortgan, chunki kufr so'zining arab tilidagi odatiy ma'nosi takziyb (ishonmaslik) so'zi bilan bir xil ma'noda qo'llaniladi. Ya'ni og'ir gunohni sodir etgan kishi takziyb (ishonchsizlikni namoyon qilmaydi), chunki u Allohga ishonadi, o'zining kechirilishiga umid qiladi hamda jazolanishdan qo'rqadi. Shuning uchun ham ularni kofir deyish xato bo'ladi.

Alloh gunohkorlarni ham mo'minlar deb atagan va ular gunoh ishlarni sodir etganda ham ularni bu nomdan mahrum qilmagan. Bunga "Nur" surasining 31-oyati dalil bo'ladi:

وَتُوبُوا إِلَى اللَّهِ جَمِيعًا أَيُّهَا الْمُؤْمِنُونَ لَعَلَّكُمْ تُفْلِحُونَ

"Barchangiz Allohga tavba qiling, ey mo'minlar. Shoyad, (shunda) najot topsangiz" [2. 353] oyatida Alloh ularni tavba qilishga buyurdi.

Hakim Samarqandiy ustoz bilan bir xil qarashni ilgari suradi. U shunday deydiki, hech bir musulmon kishi boshqa musulmonlarning oldida biror kimni garchi u gunoh ish qilgan bo'lsa ham kofir demasligi kerak. Imon keltirgan kishi garchi u gunoh ish qilgan bo'lsa ham kofir deb atalmasligi kerak. Buning qiyosi shuki, kofir bo'ysunishning barcha amallarini bajargani bilan mo'min bo'lmagani kabi. Alloh gunohkor kishini agar u gunohi orqali e'tiqodini yo'qotgan bo'lsa ularni mo'minlar deb atamagan. Agar gunohkorlar imonini yo'qotganida Alloh ey kofirlar, tavba qiling degan bo'lar edi.

Bular Moturidiy hamda Hakim Samarqandiyning imon masalalariga bog'liq bo'lgan ba'zi fikrlarining o'xshashligi to'g'risidagi dalillar edi. Bu dalillar bilan bir qatorda, kishi ularning asarlarida imon masalasiga bog'liq bo'lgan boshqa dalillarni ham uchratishi mumkin. Imon mustaqil harakat hisoblanadi, og'ir gunoh sodir etgan mo'min kishi agar tavba qilmasa jaxannamda abadiy qoladi va boshqa shu kabi nuqtalarda ularning fikrlari bir-birinikiga mos keladi.

Moturidiy hamda Samarqandiy ilohiy sifatlar masalasida hamfikir bo'lib, mu'taziliylarga qarshi kurashishgan. Mu'taziliylar Alloh yagona, abadiy, mutlaq, noyob mavjudot, uning sherigi yo'q va bir nechta bo'lishi mumkin emas degan g'oyani ilgari surishgan. Shuningdek, Allohga mohiyatidan tashqarida bo'lgan sifatni nisbat berishni rad etishgan. Boshqa tomondan esa, mushabbihaga qarshi turishgan, bu toifa Allohning Qur'onda keltirilgan sifatlarini olib, haqiqiy ma'nosiga nisbat berishgan.

Moturidiy Mu'taziliylarning fikrlarini rad etgan, u Allohga sifat berish foydasiz deb aytgan va shundan so'ng Allohga nisbat berilishi mumkin bo'lgan barcha ma'nolaridan voz kechish kerak, – degan qarashni ilgari surgan.

Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, bir kishi "Alloh aqli" deganda, boshqa bir kishi U donolik sifatiga ega degan xulosaga keladi. Shuning uchun, kishi Allohga biror sifatni nisbat

berayotgan vaqtda uning xususiyatlaridan kelib chiqib nisbat berishi kerak bo‘ladi va bu nisbat mushabbihalar aqidasi mos bo‘lib qolmasligi kerak. Chunki kishi Allohning yagonaligiga qattiq ishonishi va bir tomondan tanziyh hamda boshqa tomondan esa muxolafa qoidalariga rioya qilishi kerak.

Tanziyh qoidasi shuki, Allohning barcha nisbatlarini U va insonlar o‘rtasida o‘xshashlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan barcha fikrlardan xoli bo‘lishi kerak, muxolafa qoidasiga ko‘ra esa kishi Allohga nisbat qilib beriladigan barcha xususiyatlarni uning yagonaligi sifatidan kelib chiqqan holda tushunishi kerak. Masalan, “Alloh bilib turibdi” deyilganda, Allohning bilishi bandaning bilish o‘rganish kabi xususiyatlari bilan bir xil emasligini anglash lozim.

Samarqandiy ham ushbu masalada ustozining izidan boradi va Alloh va insonlarning sifatleri o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lishi mumkin emas degan g‘oyani ilgari suradi. U shuni ta’kidlaydiki, yaratuvchi yaratilmishga, biror narsani yaratuvchi o‘zi yaratayotgan narsaga va o‘zi qilayotgan ishga o‘xshash bo‘lishi mumkin emas deb ta’kidlaydi. Agar inson o‘zi yaratgan narsaga o‘xshash bo‘lishi to‘g‘ri bo‘lmasa, demak Alloh o‘zi yaratgan narsaga bundan ham kamroq o‘xshash bo‘ladi. Shuningdek, olim Allohga kuch va bilimni nisbat berish masalasiga ham alohida urg‘u beradi. U Alloh hamma narsaga qodir va hamma narsani bilguvchidir hamda qudrat va ilm sohibidir deb aytadi. Kimnidir qudrati bo‘lmasa u “biluvchi” yoki shaklan yoki xato tufayli, kuchsiz kishi esa “qodir” deb atalgan yoki shaklan yoki xato tufayli. Haqiqatdan ham qudratli va biluvchi zot bu Alloh va hech qaysi bir shakl maqom yoki yolg‘on unga nisbat berilmaydi.

Ahl as-sunna va-l-jamo'a ulamolari hayot, barcha narsaga qodirlik, barcha ilmlarga egalik, eshitish kabi ilohiy sifatlar mangu degan fikrga qo‘shilishadi, lekin, ash‘ariy va mu‘taziliylar rahm-shafqat, berguvchilik, yaratish kabi ilohiy sifatleri abadiy emas deb hisoblashadi.

Bunga qarshi ravishda Moturidiy bularning har ikkalasini ham ilohiy sifatlar deb ta’kidlaydi va ularning ikkalasi ham abadiy deb aytadi. U takvinni garchi unga tegishli bo‘lgan mukavvan yaratilgan bo‘lsa ham, ilohiy sifat, – deydi. Bilim ham xuddi shunday ilohiy sifat, ma‘lum bo‘lgan narsa “ma‘lum” esa yaratilmishdir.

Hakim Samarqandiy yaratilish mavzusi haqida so‘z yuritganida ushbu qoidaga amal qiladi. Ya‘ni, “Shuni bil, Alloh hali ham yaratmoqda – bu (ya‘ni natija) uning holatini o‘zgartirmaydi. Agar kimdir Alloh narsalarni yaratmasdan oldin yaratuvchi bo‘lmagan, U yaratganidan so‘ng Yaratganga aylandi desa, Alloh dastlab Alloh emas edi, keyin u Allohga aylandi deydiganlar kabidir”, – deydi.

Mu‘taziliylar Qur‘onni yaratilgan desa, ahl as-sunna va-l-jamoada bu fikrni rad etilib, uning yaratilmaganligini ilgari suriladi.

Moturidiy shunday qarorda bo‘lganki, unga ko‘ra, Qur‘onning nozil qilinishi Allohning yaratilmagan nutqidir, bir vaqtning o‘zida u ba‘zi bir mutaassiblarning Qur‘onning yoddan

aytilishi, uning nusxalari va nusxalaridagi harflar ham yaratilmagan degan qarashlariga qarshi chiqqan. O‘zining ushbu nazariyasini ishlab chiqishda Moturidiy “Niso” surasining 164-oyatiga murojaat qiladi:

وَكَلَّمَ اللَّهُ مُوسَى تَكْلِيمًا

“Alloh Muso bilan (bevosita) gaplashdi” [2. 104].

U shuningdek, sog‘lom aqlga sig‘adigan fikrni ham ilgari surgan: Agar Alloh hamma narsani biluvchi va hamma narsaga qodir bo‘lsa va shunda ham gapirmasa, bu uning mohiyatidagi kamchilik bo‘lardi. Alloh qodir bo‘lmaslikdan yuqorida turadi va shuning uchun ham u nutqqa ega.

Hakim Samarqandiy Allohning aytgan so‘zlari hamda yod olingan nutq o‘rtasidagi farqlarni aniqlashtirishga harakat qiladi. Alloh harf va so‘zlarisiz Qur‘onni nozil qilgan, biz esa uni harf va so‘zlar orqali yod olamiz. Biz yod olgan kalom – haqiqiy Qur‘on, lekin u yozilgan qog‘oz va siyoh yaratilgan.

Alloh va inson harakatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Muta‘ziliylar yoki adolat kishilari (ahl-al-’adl) ta’kidlashadiki, Alloh tomonidan bu dunyoda insonning qandaydir gunoh qilishga majbur qilib, oxiratda jazolashi bu u tomonidan yo‘l qo‘yiladigan adolatsizlikdir. Inson nimani istasa shuni qilishi mumkin va buni butunlay mustaqil holda Allohga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiradi, shuning uchun ham gunoh ishlarni sodir qilganda buning uchun javobgar bo‘ladi. Ushbu qarashni ilgari surgan holda ular qadariylar bilan bir fikrda bo‘lgan hamda jabriylarga qarshi bo‘lishgan. Jabariylar inson Allohning belgilab qo‘ygan taqdiridan chetga chiqa olmaydi, – deyishgan.

Moturidiy insonning erkinligini ham Qur‘onda keltirilgan dalillar hamda mantiqiy fikrlari bilan tasdiqlaydi. Alloh Qur‘onda: “Nimaiki istasangiz qiling” va “Kim bo‘lsa ham zarracha amalni bajarsa Alloh bularning barini ko‘rib turadi”. Mantiqan olib qaralganda, har bir kishi o‘zini mustaqil deb hisoblaydi va u istalgan amalini bajarishi mumkin hamda bunda unga hech qanday tashqi kuch ta’sir qilmaydi. Bundan tashqari Alloh va inson o‘rtasidagi munosabat Alloh va jismlar o‘rtasidagi munosabatdan farq qiladi. Insonga sabab keltirish, tasavvur qilish va o‘ylash qobiliyati berilgan. Shuning uchun ham, inson o‘zining harakatlarini amalga oshirishda mustaqil. Biroq, ushbu tanlov erkinligi Alloh bu jarayonda ishtirok etmaydi va harakatlarning barchasi insonning o‘ziga tegishli degani emas. Aksincha, inson Alloh ishtirokisiz hech qanday amalni bajara olmaydi. Insonning amallari uning o‘z hohishiga ko‘ra amalga oshiriladi, ushbu amallar esa Alloh tomonidan yaratilgan. Ya’ni kulliy ixtiyordan juz’iy ixtiyor bandada bor.

Moturidiy insonning amallarini ikki qismga ajratadi: birinchisi, uning nazoratida bo‘lgan harakatlar, ikkinchisi esa uning nazoratidan tashqarida bo‘lgan amallar, bular faqat mutlaq qudrat, mukammal bilim orqali amalga oshiriladi va inson zotiga ushbu sifatlar yetishmaydi. Ushbu

ikkinchi guruh harakatlar ya'ni narsalarni yo'q holatdan borliqqa chiqarish Allohning amallari, birinchi guruh amallar ya'ni dam olish yoki harakat qilish insonlarning amallaridir.

Inson biror amalni bajarishga intilsa, u hoh yaxshi hoh yomon amal bo'lsin, Alloh uni amalni bajarishga qodir qilib qo'yadi.

Qodirlik atamasi, Moturidiy fikriga ko'ra ikki xil ma'noga ega: birinchisi imkon beradigan qodirlik, al-qudra al-mumakkina, va ikkinchisi esa yordam beradigan qodirlik, al-Qudra al-muyassira. Birinchisi amaldan oldin sodir bo'lsa, ikkinchisi esa u bilan birga sodir bo'ladi. Birinchisi borasida Moturidiy shuni ta'kidlaydiki, u insonga ushbu amallarni bajarish uchun a'zolari va vositalarni beradi, bularga qo'l, og'iz, ko'z va boshqalar kiradi. Bunday turdagi qobiliyat insonlarga faqat maxsus harakatlarni amalga oshirishi uchun berilmagan, garchi harakatlarni bularsiz sodir etib bo'lmasa ham. "Oli Imron" surasining 197-oyati ushbu fikrni yoritish imkonini beradi:

وَلِلَّهِ عَلَى النَّاسِ حُجُّ الْبَيْتِ مَنِ اسْتَطَاعَ إِلَيْهِ سَبِيلًا

"Yo'lga qodir bo'lgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bor" [2. 62].

Ya'ni, ziyoratni amalga oshirish uchun qodirlik amalni bajarish uchun yetarlicha imkoniyatning berilishi bilan ifodalanadi.

Bunday turdagi qodirlik harakatdan oldin turadi. Qodirlikning ikkinchi ma'nosi bu vaqtinchalik qodirlik, qudrat hodisadir. Bunday turdagi qodirlik ikkinchisiga qo'shimcha hisoblanadi. Inson biror amalni bajarishni istasa, Alloh unga bu amalini bajarish uchun imkoniyat yaratib beradi. Inson o'z amallarining haqiqiy yaratuvchisi hisoblanmasa ham, buning uchun javobgar hisoblanadi, chunki uni tanlaydi va ushbu amallarni bajarishga intiladi. Shuning uchun ham ko'zi ojizlar, telbalar yomon amallarni sodir etganlarida buning uchun ayblanmaydi, chunki ularda bu amalni bajarishga intilish bo'lmagan va yaxshi amallar bajarilgan vaqtda mukofotlanmaydi, chunki ularda amalni bajarish uchun kuchli istak bo'lmagan. Hadislarda shunday keltiriladi: "Amallar niyatga bog'liq. Har kimga istagani beriladi: kim Alloh va uning rasuli uchun jihad qilsa, uning jihodi Alloh va uning rasuli uchun, kim dunyo moli yoki uylanish uchun jihad qilayotgan bo'lsa, bu jihad u nima uchun jihad qilayotgan bo'lsa shu narsa uchun". Demak, insonga ushbu qodirlikni bergandan so'ng Alloh uning yomon amallar qilishini istamaydi; lekin, bir vaqtning o'zida, inson bunday amallarni bajarishga intilsa uni bundan qaytarib qolmaydi. Yaratish Allohning amali, tanlov (ixtiyor) esa insonning qo'lida.

Hakim Samarqandiy Moturidiy fikrlarini ma'qullaydi. U qadariy va jabariylarga qarshi chiqadi. Olim inson o'z amallarini bajarishda mustaqil, lekin bular uchun javobgar, u biror bir harakatni Allohning ishtirokisiz bajara olmaydi, – deydi.

Samarqandiy o'z fikrlarini yoritish uchun taffiq va xizlon atamalarini ishlatadi. Agar inson yaxshi amallarni bajarishni istasa Alloh unga o'zining marhamatini ko'rsatadi va bu amal bilan



birga sodir bo'ladi; agar inson yomon amallarni bajarishga intilsa, Alloh undan o'z marhamatini olib qo'yadi hamda uni tark etadi. Shunga qaramasdan U insonga istagan amalini bajarish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham Alloh insonga yaxshilik va yomonlikning har ikkalasini ham bajarish imkonini beradi, bu qodirlik insonning hatti-harakatlari bilan birga yuradi ulardan oldin ham keyin ham emas. Agar inson yaxshi amalni sodir etgan bo'lsa, bu Allohning qazosi, marhamati, istagi, buyrug'i, farmoni tufayli sodir bo'ladi. Agar inson yomon amalni sodir etadigan bo'lsa, bu Allohning qazosi, farmoni va istagiga ko'ra amalga oshadi, lekin bu Allohning buyrug'iga qarshi sodir bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagilar Moturidiy va Hakim Samarqandiy shakllantirgan ba'zi g'oyalar bo'lib, ular o'z yetakchilari Imom Abu Hanifaning izidan borib Samarqandda aqida maktabiga asos solishgan hamda bir necha asrlar o'tib bu maktab Moturudiya maktabi deb atala boshlagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://moturidiy.uz/oz/news/183>; <https://www.bukhari.uz/?p=22520&lang=oz>
2. Qur'oni karim ma'no-larining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent. Toshkent islom universiteti, 2018. – B. 514.
3. MANSUR, Abduaziz. Qur'oni karim ma'lumotlarining tarjimasini va ta'fsiri. Toshkent: Toshkent Islom Universiteti, 2018.
4. ZIYODOV, Sh. "Moturidiy va Samarqandiy ilmiy qarashlari". Toshkent, 2019.
5. MUSTAFIZ, Rahmon. "Moturidiya maktabi va uning tarixiy rivoji". Samarqand, 2005.
6. SHOMURADOV, X. "Islom falsafasi: Moturidiy va Samarqandiy". Farg'ona, 2020.
7. AL-UMRIY, Ibn Fazlulloh. "Masolik al-absor fi Mamolik al-amsor". 1340.
8. <https://moturidiy.uz/oz/news/183>
9. <https://www.bukhari.uz/?p=22520&lang=oz>